

PANKREATIT KASALLIGINING ANATOMIK VA KLINIK XUSUSIYATLARI

Beshariq Abu Ali ibn Sino nomidagi
Jamoat Salomatligi Texnikumi o'qituvchisi
Botirova Malohat Iqboljon qizi

Annotatsiya

Ushbu maqolada oshqozon osti bezining anatomik tuzilishi, fiziologik vazifalari hamda pankreatit kasalligining kelib chiqish sabablari, klinik belgilari, diagnostikasi, davolash usullari va profilaktikasi yoritilgan. Pankreatit oshqozon osti bezining yallig'lanishi bilan kechadigan kasallik bo'lib, uning anatomik va funksional holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Oshqozon osti bezi, pankreas, pankreatit, anatomiya, yallig'lanish, fermentlar, diagnostika, davolash.

Dolzarbligi

Oshqozon osti bezi ovqat hazm qilish va moddalar almashinuvini boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu a'zoning yallig'lanishi natijasida organizmning ko'plab tizimlarida funksional buzilishlar yuzaga keladi. Shu sababli pankreatit kasalligining anatomik asoslarini o'rganish tibbiyot xodimlari uchun muhim hisoblanadi.

Sabablari

Pankreatit quyidagi sabablarga ko'ra rivojlanadi:

O't-tosh kasalligi;

Spirтли ichimliklarni iste'mol qilish;

Yog'li va qovurilgan ovqatlarni ko'p iste'mol qilish;

Infeksiyalar;

Qorin bo'shlig'i jarohatlari;

Ayrim dori vositalari ta'siri;

Moddalar almashinuvining buzilishi.

Pankreatit belgilari

Kasallikning asosiy belgilari:

Qorinning yuqori qismida kuchli og‘riq;

Og‘riqning orqa sohaga tarqalishi;

Ko‘ngil aynishi va qusish;

Ishtahaning pasayishi;

Tana haroratining ko‘tarilishi;

Holsizlik;

Qorin dam bo‘lishi.

Diagnostika

Pankreatitni aniqlashda quyidagi usullar qo‘llaniladi:

Anamnez yig‘ish;

Laborator tekshiruvlar (amilaza, lipaza);

Umumiy qon tahlili;

Ultratovush tekshiruvi;

Kompyuter tomografiyasi;

Magnit-rezonans tomografiya.

Pankreatitni davolash

Davolashning asosiy yo‘nalishlari:

Maxsus parhez;

Og‘riq qoldiruvchi preparatlar;

Ferment preparatlari;

Infuzion terapiya;

Antibiotiklar (zarur hollarda);

Jarrohlik davolash usullari.

Xavf

Pankreatit quyidagi asoratlarga olib kelishi mumkin:

Pankreonekroz;

Oshqozon osti bezi kistalari;

Qandli diabet;
Ichki qon ketishlar;
Ko‘p a‘zoli yetishmovchilik.
Xavf guruhi
Kasallikka moyil shaxslar:
O‘t-tosh kasalligi bilan og‘riganlar;
Spirtli ichimlik iste‘mol qiluvchilar;
Semizlikka chalinganlar;
Noto‘g‘ri ovqatlanadiganlar;
Surunkali oshqozon-ichak kasalliklari mavjud bemorlar.

Oldini olish

Sog‘lom turmush tarziga rioya qilish;
Ratsional ovqatlanish;
Spirtli ichimliklardan voz kechish;
O‘t-tosh kasalliklarini o‘z vaqtida davolash;
Muntazam tibbiy ko‘riklardan o‘tish.

Xulosa

Pankreatit oshqozon osti bezining yallig‘lanishi bilan kechadigan jiddiy kasallik bo‘lib, o‘tkir va surunkali shakllarda uchraydi. Kasallikning asosiy sabablari orasida o‘t-tosh kasalligi, spirtli ichimliklarni iste‘mol qilish, noto‘g‘ri ovqatlanish va ayrim dori vositalarining ta’siri muhim o‘rin tutadi. Pankreatit vaqtida aniqlanib, to‘g‘ri davolansa, asoratlarning oldini olish va bemorning sog‘lig‘ini tiklash mumkin. Kasallikning oldini olish uchun sog‘lom turmush tarziga rioya qilish, muvozanatli ovqatlanish, zararli odatlardan voz kechish hamda muntazam tibbiy ko‘rikdan o‘tish muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, pankreatitni erta tashxislash va samarali davolash aholi salomatligini saqlashda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedov A., Odam anatomiyasi. – Toshkent, 2021.
2. Sapin M.R. Odam anatomiyasi atlas. – Moskva, 2020.

3. Sobotta Atlas of Human Anatomy. – 17th Edition, 2023.
4. Gray's Anatomy. – 42nd Edition, 2021.
5. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi klinik tavsiyalari.